


**“Indorama Kokand Fertilizers and Chemicals” AJ
Kuzatuv kengashining 30 iyul 2024 yildagi
Majlisi qarori bilan**

“TASDIQLANGAN”



**“Indorama Kokand Fertilizers and Chemicals”
AKSIYADORLIK JAMIYATINING**

**“MONOPOLIYAGA QARSHI
KOMPLAYENS TIZIMINI JORIY ETISH VA
UNING ISHLASHINI TA'MINLASH TARTIBI
TO'G'RISIDA”**

N I Z O M I

Qo'qon - 2024

**“Indorama Kokand Fertilizers and Chemicals” AJ da monopoliyaga qarshi komplayens tizimini joriy etish va uning ishlash tartibi to‘g‘risida
NIZOM**

I. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizom “Indorama Kokand Fertilizers and Chemicals” aksiyadorlik jamiyatida (keyigi o‘rinlarda – “jamiyat” deb yuritiladi) monopoliyaga qarshi komplayens tizimini joriy etish, uning faoliyat yuritish va monitoring qilish tartibini belgilaydi.

1.2. Monopoliyaga qarshi komplayens tizimi tovar bozorida ustun mavqega ega bo‘lgan xo‘jalik yurituvchi subyektlarda tashkil etiladi;

1.3. Monopoliyaga qarshi komplaens tizimini joriy etish, uning faoliyat yuritishini ta‘minlash va monitoring qilish uchun kuzatuv kengashi, ijro organi va komplaens xizmati mas‘uldir.

1.4. Mazkur Nizomda quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:

monopoliyaga qarshi kurashish organi — O‘zbekiston Respublikasi Monopoliyaga qarshi kurashish qo‘mitasi va uning hududiy boshqarmalari;

monopoliyaga qarshi komplayens — faoliyatning raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik talablariga muvofiqligini ta‘minlash, ularning buzilishi xatarlarini aniqlash va mazkur xatarlarning oldini olish bo‘yicha ichki tashkiliy tartib-taomillar tizimi;

monopoliyaga qarshi komplayens to‘g‘risidagi hisobot — “Indorama Kokand Fertilizers and Chemicals” AJ raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlariga amal qilinishini tashkil etish haqidagi axborotni o‘z ichiga oladigan hujjat;

mas‘ul shaxs (bo‘linma) — jamiyatda bosh directorga bevosita bo‘ysunadigan va monopoliyaga qarshi komplayens tizimini ishlab chiqish, joriy etish va uning tegishli monitoringini, shuningdek, ishlashini ta‘minlash uchun mas‘ul bo‘lgan alohida tarkibiy bo‘linma yoki shaxs;

savdolar — tovar va xizmatlarni xarid qilish va sotish bilan bog‘liq bo‘lgan taomillar, shu jumladan, elektron savdo taomillari.

II. Monopoliga qarshi komplayensning maqsadi va vazifalari.

2.1. Monopoliyaga qarshi komplayens tizimining asosiy maqsadi Jamiyat faoliyatining raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik xujjatlari talablariga muvofiqligini ta‘minlashdir.

2.2. Quyidagilar monopoliyaga qarshi komplayens tizimining asosiy vazifalari hisoblanadi:

2.2.1. jamiyat faoliyatining raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik talablariga muvofiqligini ta‘minlash hamda monitoring qilish;

2.2.2. jamiyatda raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik talablarining buzilish xatarlarini boshqarish;

2.2.3. jamiyat tomonidan raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik talablarining buzilishlarini aniqlash va ularning oldini olish;

2.2.4. jamiyatda insofli raqobatni shakllantirish va tartibga solish.

2.2.5. jamiyat xodimlarida raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik bo‘yicha malakasini oshirish yuzasidan o‘qitish yo‘li bilan raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlariga doir fikrlarini rivojlantirish.

III. Monopoliyaga qarshi komplayens tizimini tashkil etish

3.1. “Indorama Kokand Fertilizers and Chemicals” aksiyadorlik jamiyatida faoliyatning raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik talablariga muvofiqligini ta‘minlash, ularning buzilishi xatarlarini aniqlash va mazkur xatarlarni oldini olish maqsadida monopoliyaga qarshi komplayens tizimi joriy etiladi.

3.2. Monopoliyaga qarshi komplayens tizimini joriy etish, uning faoliyat yuritishini ta‘minlash va monitoring qilish mas‘ul shaxs tomonidan amalga oshiriladi.

3.3. Jamiyatda monopoliyaga qarshi komplayens tizimini tashkil etish va uning ishlash samaradorligini baholash Bosh director tomonidan kuzatuv kengashi bilan kelishilgan holda amalga oshiriladi.

IV. Mas'ul shaxs, uning vazifalari va huquqlari.

4.1. Jamiyatda monopoliyaga qarshi komplayens tizimini joriy etish, uning faoliyat yuritishini ta'minlash va monitoring qilish maqsadida bir nafar mas'ul shaxs tayinlanadi.

4.2. Mas'ul shaxsni lavozimga tayinlash bosh director tomonidan kuzatuv kengashi bilan kelishilgan holda, Monopoliyaga qarshi kurashish qo'mitasi Farg'ona hududiy boshqarmasini (xabarnoma yuborish orqali) xabardor qilgan holda amalga oshiriladi.

4.3. Mas'ul shaxs bevosita Bosh directorga bo'ysunadi va hisobdor bo'ladi.

4.4. Mas'ul shaxs lavozimiga nomzod quyidagi talablarga javob berishi lozim:

4.4.1. iqtisodiyot, boshqaruv tizimi (menejment), huquq yoki xo'jalik yurituvchi subyekt faoliyatining asosiy yo'nalishlaridan biri bo'yicha oliy ma'lumotga ega bo'lishi;

4.4.2. ustuvor ravishda komplaens, xatarlanni boshqarish, ichki audit yoxud xo'jalik yurituvchi subyekt faoliyatini yuridik ta'minlash yo'nalishlari bo'yicha kamida bir yillik ish tajribasining mavjudligi.

4.5. Jamiyat mas'ul shaxsiga faoliyat davomida yetarli sharoitlarni yaratib berishi shart.

4.6. Mas'ul shaxs raqobat to'risidagi qonun xujjatlarini buzish xavfi bilan bog'liq masalalarni muhokama qilishda barcha zaruru xujjatlar bilan tanishish vakolatiga ega.

4.7. Mas'ul shaxs quyidagilarni amalga oshiradi:

4.7.1. raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablari buzilishini monitoring qiladi;

4.7.2. faoliyatga tegishli materiallarni tahlil qiladi (shu jumladan, raqobatni va (yoki) iste'molchilarning huquq va manfaatlarini cheklaydigan normalarni aniqlashga qaratilgan ichki hujjatlarni xatlovdan o'tkazadi), aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etishga yo'naltirilgan choralarni ishlab chiqadi;

4.7.3. raqobat cheklovlarini keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan omillarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo'yicha takliflar ishlab chiqadi;

4.7.4. monopoliyaga qarshi komplayens tizimining faoliyat yuritishi bilan bog'liq masalalar bo'yicha boshqa tuzilmaviy bo'linmalar bilan o'zaro aloqalarni muvofiqlashtiradi;

4.7.5. raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablari buzilish bilan bog'liq ichki o'rganish ishlarini tashkil etadi;

4.7.6. monopoliyaga qarshi kurashish organi bilan raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablari buzilishi bo'yicha o'zaro axborot almashadi;

4.7.7. raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilish xatarlarini kamaytirish maqsadida bir yilga mo'ljallangan "Yo'l xaritasi"ni ishlab chiqadi va amalga oshirilishini ta'minlaydi;

4.7.8. monopoliyaga qarshi komplayens tizimini tashkil etish bo'yicha ichki nizom ishlab chiqadi hamda uning belgilangan tartibda tasdiqlanishini ta'minlaydi;

4.7.8. raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari o'zgarishlarni monitoring qiladi, shuningdek, idoraviy hujjatlarga tegishli o'zgartirishlar kiritish yuzasidan takliflar kiritadi;

4.7.9. raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilish xatarlarini aniqlaydi, xatarlar bilan bog'liq holatlar hisobini yuritadi va yuzaga kelish ehtimolini belgilaydi;

4.7.10. jamiyatning faoliyatida raqobat cheklovlarini keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan manfaatlar to'qnashuvini aniqlaydi, ularni bartaraf etish bo'yicha takliflar ishlab chiqadi;

4.7.11. jamiyat xodimlariga raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablariga amal qilish bilan bog'liq masalalar bo'yicha maslahatlar beradi;

4.7.12. monopoliyaga qarshi komplayens masalalari bo'yicha muntazam ravishda treninglar o'tkazadi;

4.7.13. jamiyat tomonidan qabul qilinadigan hujjatlarning loyihalarini o'rganadi va raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilishini keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan normalar aniqlangan taqdirda, bu haqda rahbarni xabardor qiladi;

4.7.14. har yili birinchi fevralga qadar monopoliyaga qarshi komplayens haqidagi hisobotni bosh directorga tasdiqlash uchun taqdim etadi.

V. Raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilishini aniqlash

5.1. Jamiyatda raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilish xatarlarini aniqlash maqsadida mas'ul shaxs tomonidan quyidagilar amalga oshiriladi:

5.1.1 raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilishiga yoki bozorda raqobatni cheklashga olib keladigan normalar va qoidalarni aniqlash maqsadida normativ-huquqiy hujjatlarni o'rganish;

5.1.2. eng yaxshi takliflarni tanlash, tender va birja savdolariga qo'yiladigan monopoliyaga qarshi talablarga amal qilinishini tahlil qilish;

5.1.4. aniqlangan raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablarini buzish holatlarini tahlil qilish;

5.1.5. raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlarini qo'llash amaliyotini monitoring va tahlil qilish;

5.1.6. raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilish xatarlarini kamaytirish bo'yicha ishlab chiqilgan va amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar samaradorligini muntazam ravishda baholash;

5.1.7. jamiyat tomonidan o'zining ustun holatini suiiste'mol qilishga, monopol yuqori yoki monopol past narxlarni o'rnatishga, kontragentlarga manfaatsiz va cheklovchi shartnoma shartlarini majburan qabul qildirishga, til biriktirishlar, kelishuvlar va kelishilgan harakatlarni aniqlash, boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlarning tovar bozoriga kirishiga to'siqlar yaratishga olib keladigan yoki olib kelishi mumkin bo'lgan harakatlarni o'rganish;

5.1.8. xo'jalik yurituvchi subyektning raqobat tartib-taomillarini, shu jumladan, eng yaxshi takliflarni tanlashda, tenderlarda, auksionlarda, birjalarda va boshqa savdolarini o'tkazish va ularda qatnashish bo'yicha talablarga amal qilishini o'rganish;

5.1.7. vujudga kelish ehtimoli bo'lgan monopoliyaga qarshi xatarlarni tahlil qilish va ularning ro'yxatini komplayens-xatarlar xaritasi ko'rinishida tuzish;

5.1.8. raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilish xatarlarini kamaytirish bo'yicha ishlab chiqilgan va amalga oshirilayotgan tadbirlarning samaradorligini muntazam ravishda baholash.

5.2. Raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilish bo'yicha aniqlanadigan xatarlar mas'ul shaxs (bo'linma) tomonidan mazkur nizomga ilovaga muvofiq darajalar bo'yicha taqsimlanadi.

5.3. Raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilish xatarlari bo'yicha o'tkazilgan baholash ishlari asosida mas'ul shaxs (bo'linma) tomonidan xatarlar tavsifi tuziladi, unga xatarlarning paydo bo'lish sabablari va shartlarini baholash ishlari ham kiritiladi.

5.4. Raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilish xatarlarini tahlil qilish, aniqlash va baholash to'g'risidagi axborot monopoliyaga qarshi komplayens haqidagi hisobotga kiritiladi.

VI. Monopoliyaga qarshi komplayens tizimining ishlash samaradorligini baholash

6.1. Jamiyatda monopoliyaga qarshi komplayens tizimining ishlash samaradorligini baholash bo'yicha asosiy ko'rsatkichlarni hisoblash monopoliyaga qarshi kurashish organ tomonidan ishlab chiqilgan metodika asosan hisoblab boriladi.

6.2. Mas'ul shaxs jamiyatda monopoliyaga qarshi komplayens tizimining erishilgan asosiy samaradorlik ko'rsatkichlarini baholaydi (yilda kamida bir marta).

6.3. jamiyatda monopoliyaga qarshi komplayens tizimining ishlash samaradorligini baholash bo'yicha asosiy ko'rsatkichlarga erishilgani to'g'risidagi axborot monopoliyaga qarshi komplayens haqidagi hisobotga kiritiladi.

VII. Monopoliyaga qarshi komplayens haqidagi hisobot

7.1. Mas'ul shahs har yili birinchi fevralga qadar monopoliyaga qarshi komplayens haqidagi hisobotni tuzadi.

7.2. Monopoliyaga qarshi komplayens haqidagi hisobot quyidagilarni o'z ichiga qamrab oladi:

7.2.1. raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilish xatarlari bo'yicha o'tkazilgan baholash ishlarining natijalari;

7.2.2. raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilish xatarlarini kamaytirish bo'yicha chora-tadbirlarning bajarilishi;

7.2.3. monopoliyaga qarshi komplayens tizimining asosiy samaradorlik ko'rsatkichlariga erishilgani haqidagi axborot.

7.3. Jamiyar bosh direktori tomonidan tasdiqlangan monopoliyaga qarshi komplayens bo'yicha hisobot jamiyatning rasmiy veb-saytida joylashtiriladi va uch ish kuni ichida monopoliyaga qarshi kurashish organiga yuboriladi.

VIII. Yakuniy qoidalar

8.1 Mazkur nizomni qo'llash bilan bog'liq nizolar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda hal etiladi.

8.2. Mazkur nizom talablarini buzishda aybdor bo'lgan shaxslar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda javobgar bo'ladilar.

ILOVA

Raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilish darajasi bo'yicha NAMUNAVIY XAVFLAR TASNIFI*

Ehtimollikni baholash (yuz berish ehtimollari)	Oqibatlar darajasi		
	Past	O'rtacha	Yuqori
Yuqori ehtimollik			
O'rtacha ehtimollik			
Past ehtimollik			

* Raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilish darajasi bo'yicha xavflar tasnifi tavsiyaviy ahamiyatga ega bo'lib, bozor faoliyatining o'ziga xos xususiyatiga qarab o'zgartirilishi mumkin.